



SOHIBQIRON YULDUZI

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal

СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

Общественно-исторический, историко-популярный
журнал

OWNER STAR

Socio-historical, historical and popular magazine

Qarshi-2024



Bosh muharrir:

Ochil Bo‘riyev

Nashr uchun mas’ullar:

Ravshan To‘xtamishev

Ilhom Tog‘ayev

TAHRIR HAY’ATI

A’ZOLARI:

akademik Akmal Saidov
akademik Anatoliy Sagdullayev
akademik Dilorom Yusupova
Sirojiddin Sayyid
prof. Abdurahim Erkayev
prof. Qahramon Rajabov
prof. Yulduz Ergasheva
prof. Bahodir Eshov
filol.f.d. Nafas Shodmonov
To‘lqin Hayit
t.f.d. G.Mo‘minova
prof. Shokir G‘afforov
filol.f.d. Xo‘jamurod Jabborov
filol.f.d. Damin To‘rayev
t.f.d. Akram Hasanov
prof. Kamoliddin G‘aniyev
t.f.n.dots. Matluba To‘rayeva
t.f.d. Faxriddin Rahmonov
t.f.f.d. Saodat Murtazova
t.f.f.d. Ra’no To‘xtayeva
t.f.f.d. Sarvinoz Omonova
t.f.f.d. Oksana Rakmonkulova

Manzilimiz:

Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32

Elektron manzilimiz: sohibqiron-jurnali@mail.ru



SOHIBQIRON YULDUZI

СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

OWNER STAR

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal 2010 yildan boshlab chiqarilmoqda

Muassis:
SOHIBQIRON
SHULASI M.CH.J.
Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2 –uy.
Telefon: 91.466-80-32
Sayt:
www.sohibqiron-yulduzi.uz
E-mail:
sohibqironjurnali@mail.ru
Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012 yil
12 marta
14-076 raqami bilan ro'yxatga olingan.
Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi.
Jurnaldan ko'chirma olinganda manba qayd etilishi shart.
Nashr indeksi - 4074 ISSN 2181-2845
7-sonli nashr.
Terishga topshirilgan sana 16.10.2024 y.
Nashrga berilgan sana 05.11.2024 y.
Chop etilgan sana 28.11.2024 y.
Bichimi 60x84 1/8. Times garniturasi. Shartli bosma tabog'i 6,26. Nashr bosma tabog'i 6,25. Adadi 100.
Buyurtma №410
Jurnal «Rhoto Express» ishlab chiqarish korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:Qarshi shahri Mustaqillik shoh ko'chasi,22-uy.

2024/ 1- MAXSUS SON

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

TADQIQOT / ИССЛЕДОВАТЬ / RESEARCH

Normatov O. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishi xususida.....	4
Qandov B. Turkistonagi siyosiy jarayonlarda atoqli davlat arbobi Turor Risqulovning tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati	10
A.Горин. Монеты “герая” из крепости узундара.....	18
Z.Haydarova. Motiv va motivatsiya - o'quvchining qiziqishlari, bilish darajasi hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan omil sifatida.....	29
Sh.Parmonov. Rossiya imperiyasi siyosatida general Jo'rabeckning o'rni.....	36
A.Toshtemirov. Muhammad Ali o'tkazgan islohotlarning Misrning xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashdagi o'rni	42
U.Rahmonov. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy va madaniy qarashlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari.....	50
S.Saparov. Kidariylarning Markaziy Osiyo va Hindistonga ko'chish sabablari va yo'nalishlari	54
A.Xolmo'minov. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarda tabiat kulti bilan bog'liq qarashlar(Toshkent viloyati misolida).....	61
Misabayeva M. Turkistonagi ozodlik harakatining tarixshunosligi	66
Usmonaliyeva M. "Taraqqiy" – birinchi milliy gazeta	70
L.Ochigliyev. Qashqadaryo vohasida ekologik turizmning holati	75
Sh.Qilicvhev. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruvi idorasi	82
Sh.Luqmonov. RSFSR hududida joriy qilingan yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston pul munosabatlari tizimida tutgan o'rni	88



O'RTA OSIYODA MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH AMALGA OSHIRILISHI XUSUSIDA

Otabek Normatov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy –hududiy chegaralanishni sovet hokimiyati tomonidan o'tkazilishiga doir fikr-mulohazalar, turli xil manbalar va adabiyotlar orqali yuritiladi.

Аннотация. В данной статье обсуждаются мнения о проведении советской властью национально-территориального разграничения в Средней Азии, различные источники и литература.

Annotasiya. This article discusses opinions on the implementation of national-territorial demarcation in Central Asia by the Soviet government, various sources and literature.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Turkiston, milliy – hududiy chegaralanish, O'zbekiston, respublikalar va avtonom viloyatlar, milliy tarkib.

Ключевые слова: Средняя Азия, Туркестан, национально-территориальные границы, Узбекистан, республики и автономные области, национальный состав.

Keywords: Central Asia, Turkestan, national-territorial borders, Uzbekistan, republics and autonomous regions, national composition.

Turkiston mintaqasini milliy-hududiy jihatdan qayta chegaralash masalasi Markaz tomonidan 1924 yilning boshlarida u o'zining so'nggi bosqichiga kirdi.

RKP(b) MKning Tashkiliy byurosi o'zining 1924 yil 31 yanvardagi majlisida boshqa masalalar bilan bir qatorda Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risidagi masalani ham ko'rib chiqdi va Ya.E.Rudzutakka mazkur respublikalarning mas'ul xodimlari bilan birgalikda bu g'oyani amalda qanday ro'yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilib ko'rishni topshirdi.

Ma'lumki, Rossiya rahbariyati o'sha vaqtida milliy kommunistlarning o'lka xalqlari davlatchilagini turkiylar birligi prinsiplari asosida ko'rish haqidagi da'volarini rad etib, bundan keyin xam ularni bo'lib yuborish va Rossiya tarkibida ayrim avtonom, milliy davlat tuzilmalari tashkil etish yo'lidan borish niyatini qat'iy bayon qilgan edi.

Markazning yuqori siyosiy rahbariyati uchun Turkistonni bo'lib yuborish, uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yo'q qilish g'oyasi ustuvor bo'lib qoldi. U Turkistonni saqlab qolish o'zining imperiyacha maqsadlariga xavf tug'diradi deb hisoblardi, chunki Turkiston unda yashovchi barcha xalqlar ongida ularning tarixiy Vatani ramzi sifatida tushunilardi, uning mustaqilligi va ozodligi uchun kurashda



doimo birlashtiruvchi ta'sirchan omil bo'lib kelgan edi. 1920 yil 20 iyunda Rossiya KP(b) MK Siyosiy byurosi majlisida Turkiston masalalari yuzasidan qabul qilingan to'rtta qaror keyinchalik "RKP(b) MKning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida", degan umumiy nom bilan mashhur bo'lib, alohida bandida TurkMIKga "Turkistonning ma'muriy okruglarini uning milliy tarkibiga muvofiq qayta taqsimlashga kirishish" topshirilgan.

1920 yil sentabrda Butunturkiston Sovetlarining IX syezdi TASSR Konstitutsiyasini tasdiqladi, uning loyihasini Turkiston komissiyasi a'zolari tayyorlagan edi. Konstitutsiyada aytilishicha, "Turkiston unda yashovchi asosiy xalqlarning, ya'ni: turkmanlar, o'zbeklar va qirg'izlarning (qozoqlarning) - muxtor respublikasi deb e'tirof qilinib, asosiy milliy guruuhlar, iqtisodiy va maishiy ukladi bo'yicha viloyatlarga bo'linadi va RSFSRning Turkiston Avtonom Respublikasi degan nom bilan ataladi". Xullas, Turkiston aholisining bo'linishi, uning etnik nomi bo'yicha ma'muriy-hududiy tuzilishi Konstitutsiya asosida mustahkamlandi, holbuki, bu xalqlar uchun birlashtiruvchi omil u vaqtida diniy va hududiy mansublik edi. Bolsheviklar O'rta Osiyodagi xalqlarni milliy guruhlarga ajratish uchun ularning etnik jihatdan o'xshashlarini birlashtirishni lozim ko'rdi va bu maqsadda til vositasidan foydalandi. Bolsheviklarning bu sohadagi faoliyati aniq yo'nalishga ega bo'lib, turkiy tilning ayrim lahjalarini isloh qilish va ular negizida har bir milliy tuzilma uchun mo'ljallangan o'z milliy tillarini yaratishdan iborat edi.

Turkiston aholisini milliy belgisi bo'yicha guruhlarga ajratishga qaratilgan mafkuraviy, siyosiy, imlo, madaniyat va boshqalarga doir bir qator tadbirlar bilan birga 1920 yildan e'tiboran tajriba qilina boshlangan turkman, o'zbek syezdlari, konferensiya va kengashlarini o'tkazishga keng o'rin ajratildi. Turkiston komissiyasi tashabbusi bilan chaqiriladigan bunday syezdlar, konferensiya va kengashlar odatda muayyan milliy guruhning mustaqil hududiy-ma'muriy birlik bo'lib chiqishga "istak bildirganligi"ni namoyish qilishdan iborat edi. Shunday yo'l bilan Turkiston xaritasida Turkman (Turkmaniston) viloyati paydo bo'ldi.

RSFSR tarkibiga kirgan Turkiston Avtonom Sovet Respublikasini yangitdan chegaralash haqidagi bolsheviklar g'oyasi 1920-yillar o'rtalariga kelib, ancha keng miqyos kasb etgan vazifaga - milliy-hududiy chegaralanishga faqat Turkiston Respublikasining emas, balki Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining ham tortilishi masalasiga aylanib ketdi. Bu vaqtida Buxoro va Xorazm Respublikalari huquqiy jihatdan hali mustaqil suveren davlatlar hisoblanardi. O'rta Osiyoni milliy chegaralash masalasi Moskvada to'liq qo'llab-quvvatlandi. Chunki bu vaqtga kelib Markazning partiya rahbariyatida chegaradosh masalasi aniq ifodalangan asosiy maqsadga aylanib qolgan edi.

RKP(b) MKning bevosita ko'rsatmasiga muvofiq Turkiston, Buxoro va Xorazmning rahbar partiya organlari Markaz ilgari surgan milliy-hududiy chegaralanish g'oyalarini amalga oshirishga tortildi. 1924 yilning fevralidayoq Buxoroga RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining a'zosi, TKP MKning mas'ul kotibi Abdulla Raximboyev yuborildi, bu yerda u BXSR rahbar xodimlari kengashida milliy-hududiy chegaralanish to'g'risida ma'ruza bilan so'zga chiqdi. Kengash asosan chegaralanish o'tkazishni ma'qulladi[1.].



1924 yil 25 fevralda bu masala Buxoro Kompartiyasi MK Plenumi muhokamasiga qo‘yildi. Plenumda Fayzulla Xo‘jayev ma’ruza qildi. Plenumda asos sifatida qabul qilingan BKP MKning tezislari BKP MK komissiyasi tomonidan qarab chiqildi va qayta ishlandi, uning Ijroiya byurosi majlisida 1924 yil 10 martda tasdiqlandi[2.]. BKP MK Ijroiya byurosi O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishini kompartiya e’lon qilgan muddatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini hayotga tatbiq etishning muhim bosqichi sifatida talqin etib, tezislarda qayd etilganidek, chegaralanishning sxemasini quyidagicha taklif etdi: O‘rta Osiyoda O‘zbekiston, Turkmaniston ittifoqdosh respublikalarini, O‘zbekiston Respublikasi tarkibida avtonom Tojikiston viloyatini tuzish, shuningdek, Turkistonning qozoq tumanlarini Qozog‘iston Respublikasiga birlashtirish. Yangi tashkil etilayotgan O‘zbekiston Respublikasining ixtiyoriy asosda SSSR tarkibiga kirishi aytib o‘tildi.

Turkiston Kompartiyasida ham bu masala xuddi shunday tarzda rivojlandi. Buxoroda bo‘lgani kabi oldindan 1924 yil 10 martda TKP va Turkiston MIK mas’ul xodimlarining kengashi chaqirildi. Ma’ruzachi A.Raximboyev O‘rta Osiyoning milliy belgi bo‘yicha chegaralanishi sovet hokimiyatini mustahkamlashning birdan-bir chorasi ekanligini yana bir karra ta’kidlab, bu tadbirning haqiqiy maqsadini aniq ifodalab berdi.

Milliy chegaralanishni o‘tkazish to‘g‘risidagi masala TKP MKning 1924 yil 23-24 martda bo‘lib o‘tgan plenumida uzil-kesil hal qilindi. Plenum milliy chegaralanish zarurligini e’tirof qilib, uni faqat Turkiston Respublikasi doirasi bilan chekladi: uning hududida uchta milliy respublika - O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston Respublikalarini tashkil etish mo‘ljallandi. Shu bilan birga plenum TKP MKga Buxoro va Xorazmning partiya organlari bilan aloqa o‘rnatish hamda birgalikda O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishi to‘g‘risidagi masalani kelishib olishni topshirdi.

Xorazm Kompartiyasi rahbariyatida milliy chegaralanishga turlicha munosabat paydo bo‘lgan edi. 1924 yil 3 martdayoq partiya MK Ijroiya byurosi majlisida axborot tartibida RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosining a’zosi I.Mejlaukning milliy-hududiy chegaralanish to‘g‘risidagi ma’ruzasi tinglandi. Biroq majlis ma’ruzani ma’lumot uchun qabul qilish to‘g‘risidagi ko‘rsatma bilan cheklandi.

O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishini amalga oshirishning dastlabki bosqichi shu bilan tugallandi. Uning mohiyati shundan iborat ediki, Turkiston, Buxoro va Xorazmning partiya rahbariyati RKP(b) MKning xohish-istagini itoat bilan bajardi va chegaralanish hamda milliy respublikalar tashkil qilinishini yoqlab fikr bildirdi. Ular qabul qilgan hujatlarda fikrlar ifodasining o‘xhashligi jihatidan RKP(b) MKning yagona maqsadi va irodasi yaqqol sezilib turardi. Markazning bu irodasining sodiq bajaruvchisi RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosining raisi, Markazning partiyaviy dastyori, o‘lkaning o‘ziga xos xususiyatlarini zaif biladigan Ya. Rudzutak bo‘ldi.

1924 yil aprel-iyun oylarida markaziy organlar, mintaqalik kommunistik tashkilotlari va RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosni milliy chegaralanish masalalari yuzasidan amaliy takliflar va tegishli materiallar tayyorlash bo‘yicha zo‘r berib ish olib bordilar. Bunday materiallarni tayyorlashni ulardan RKP(b) MK Siyosiy byurosining 1924 yil 5 apreldagi majlisi talab qilgan edi. Milliy chegaralanish



masalalarini yanada batafsilroq, chuqurroq o‘rganish uchun Turkiston va Buxoro Kompartiyalari Markaziy Komitetlari huzurida maxsus komissiyalar tuzildi. Bunday komissiya O‘rta Osiyo byurosi huzurida ham ish olib borardi, bu komissiya huzurida milliy kichik komissiyalar xam tashkil etilgan edi.

Kichik komissiyalarning ma’ruzalari RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi Komissiyasining 1924 yil 10 maydagi majlisida, 11 mayda esa RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosida tinglandi. Byuro maxsus komissiya va uning kichik komissiyalari ishining yakunlarini muhokama qilib, ular ishlab chiqqan O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishining aniq rejasini tasdiqladi. Qabul qilingan qarorda bunday deyilgan edi:

“1. Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalarini milliy-hududiy belgilariga ko‘ra chegaralash zarur deb topilsin, yangi tashkil etilayotgan milliy-hududiy birlashmalardan federatsiya tashkil etilmasin. 2. O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalari tashkil etilsin va ular mustaqil SSR huquqlariga ega bo‘lsin va bevosita SSSRga kirsin. O‘zbekiston Respublikasi doirasida Tojikiston avtonom viloyati tashkil etilsin. Qirg‘iziston avtonom viloyati tashkil etilsin: Qirg‘iziston avtonom viloyati qaysi respublika tarkibiga kirishi masalasi ochiq qoldirilsin. 3. Turkiston Respublikasida yashaydigan qozoqlar hozirgi vaqtida mavjud bo‘lib turgan Qozog‘iston Respublikasiga kiritilsin”[3.].

Biroq O‘rta Osiyo byurosi bu qarorni qabul qilar ekan, vaziyatning o‘zgarishini hisobga olmagan edi. 1924 yil 8 maydayoq O‘rta Osiyo iqtisodiy konferensiyasida qatnashish uchun Toshkentga kelgan Xorazm delegatsiyasi a’zolari RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi raisiga “Xorazmda milliy masalaning hal qilinishi to‘g‘risida maktub” topshirdilar, unda Xorazmni mustaqil ma’muriy rayon sifatida o‘zining doirasida qoldirish, shuningdek, Xorazm Respublikasi bilan Turkiston Respublikasining Amudaryo viloyatini birlashtirish taklif qilingan edi. Aslida, bu Xorazmning chegaralanish o‘tkazilishini rad qilishi edi. Shunga qaramasdan, O‘rta Osiyo byurosi bu fikri inkor etdi, o‘z qarorlarining birinchi bandiga Xorazm Respublikasini xam kiritdi. Lekin iyunda XKP MK Ijroiya byurosi o‘zining telegrammasi bilan maktub mualliflarining nuqtai nazarini qo‘llab-quvvatladi. Shu munosabat bilan 1924 yil 12 iyunda bo‘lib o‘tgan RKP(b) MK Siyosiy byurosi O‘rta Osiyo byurosining majlisga tayyorlagan materiallariga tegishli tuzatishlar kiritishiga majbur bo‘ldi. Siyosiy byuro Xorazm Respublikasini oldingi holida qoldirishga qaror qildi.

RKP(b) MK Siyosiy byurosining 1924 yil 12 iyundagi qaroridan boshlab, aslida milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishini tayyorlash jarayoni yangi bosqichga kirdi. 15 iyulda MK O‘rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va viloyatlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi. O‘zbeklar (O‘zbekiston) byurosi tarkibiga Fayzulla Xo‘jayev, Rustam Islomov, Akmal Ikromov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Muxtorjon Saidjonov a’zo sifatida, B. Inoyatov esa nomzod sifatida kiritildi. Rejalashtirilgan yangi milliy tuzilmalarni mazmunan to‘ldirish, ularning hududlarini aniqlab chiqish, chegaralarni ajratish va belgilash lozim edi. Bu ish birmuncha oldinroq RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi tashkil etgan hududiy komissiyada, uning milliy kichik komissiyalarida va janjalli masalalarni hal qilish



uchun tuzilgan maxsus komissiyalarda boshlangan edi. Hududiy komissiya tarkibiga Fayzulla Xo‘jayev, Sultonbek Xo‘janov, Abdulla Raximboyev, Rustam Islomov, Qayg‘isiz Otaboyev, Nodir Aytoqov, Yusuf Abduraxmonov, Imanali Aydarbekov, Iosif Vareykis, Dmitriy Manjara, Ivan Mejlauk, Xolmurod Saxatmurodov va boshqa siyosiy arboblar kirgan edi[4.].

Hududiy komissiya (uning tarkibiga yangi tashkil etilayotgan respublikalar va viloyatlarning vakillari kirgan edi) majlislarining stenografik hisobotlari, bugungi kunda bu ishni bajarganlardan birining obrazli iborasi bilan aytganda, “aholini milliy guruhlarga ajratish” muammosining murakkabligi va xilma-xilligiga chinakam baho berish imkoniyatini tug‘diradi. Agar o‘zbek va turkman kichik komissiyalarining vakillari umuman bitta nuqtai nazarda: chegaralanish asosida mustaqil “milliy sovet” respublikalari va avtonom viloyatlari tashkil etilishini yoqlagan bo‘lsalar, Xorazm delegatsiyasi Xorazm Respublikasining daxlsizligini himoya qilishda davom etdi, qozoq kichik komissiyasi esa O‘rta Osiyo Sovet Respublikalari Federatsiyasini tuzish g‘oyasini yana bir marta ilgari surdi. O‘rta Osiyo hududini mo‘ljallanayotgan milliy tuzilmalar O‘rtasida chegaralarga ajratib olishda yanada ko‘proq xilma-xillik ko‘zga tashlandi. Chegaralanish uchun asos qilib olingan ikki prinsip - milliy-hududiy va iqtisodiy prinsiplar O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan sharoitga to‘g‘ri kelmadi. Hududiy komissiya a‘zolari oldiga hal etilishi qiyin bo‘lgan vazifalarni keltirib chiqardi, ular o‘rtasida norozilik va kelishmovchiliklarni chuqurlashtirdi, ba’zida esa g‘alati va jiddiy vaziyatlarni yuzaga keltirdi[5.].

Majlis qatnashchilari tayanch masalalarni ilmiy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganib o‘tmasdan oddiy ovoz berish yo‘li bilan O‘rta Osiyo Federatsiyasi tashkil etilishi g‘oyasiga qarshi fikr bildirib, O‘zbekiston, Turkmaniston Respublikalari tashkil etilishi va ularning bevosita SSSRga kirishini, O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Tojikiston avtonom viloyati va Qirg‘iziston avtonom viloyati tarkib topishini yoqlab chiqdilar.

Umuman olganda, RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosining hududiy komissiyasi majlisi ishtirokchilari milliy-hududiy chegaralanish masalalari yetarli darajada tayyorlanmaganligini, bu masalalar taxminan hal etilganligini, ularni ilmiy jihatdan asoslab berish ehtiyoji borligini tushunib yetdilar, qo‘sishma materiallar, statistik ma'lumotlar jalb qilish zarurligi, tegishli xaritalarga ega bo‘lish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Ana shularga asoslanib, xususan, yangi tuzilmalarning chegaralari haqidagi masalani qarab chiqish qoldirildi.

Hududiy komissiya faoliyatining natijalari O‘rta Osiyo byurosida va O‘rta Osiyo kommunistik tashkilotlari rahbar organlarida muhokama qilindi.

O‘rta Osiyodagi yangi milliy tuzilmalar hududini va chegaralarini belgilashda partiya rahbarligi haqiqatda real qiyinchiliklarga duch keldi. Mintaqadagi turli xalqlarning asrlar mobaynida qaror topgan tarqoq holda joylashganligi, ularning xo‘jalik, sof turmush aloqalari faqat milliy jihatni e’tirof qilishni emas, shu bilan birga xalqlarning tarixiy rivojlanishini, xo‘jalik, maishiy shart-sharoitlar kabi omillarini, hududlarning iqtisodiy yaxlitligini, ularning iqtisodiy intilishini va hokazolarni hisobga olishning ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi.

Turkiston KP MK, Turkiston MIQ va Taftish komissiyasining qo‘shma plenumi



Turkiston, Buxoro va Xorazmning milliy-hududiy chegaralanishi rejasini umuman ma'qulladi, hududiy komissiyaning va RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining qarorlarini tasdiqladi va mazkur rejani qarab chiqish hamda tasdiqlash uchun Turkiston MIQning favqulodda sessiyasini chaqirish haqida qaror qabul qildi. Shu tariqa, bunga qadar faqat partiya organlari tomonidan qarab chiqilgan, tayyorlangan va uzil-kesil hal etilgan masalani tasdiqlash uchun sovet organlariga berishga qaror qilindi. Bundan tashqari, TKP MKning qo'shma plenumi bu masalaga doir o'z rezolyutsiyasida "ishchilar va dehqonlar ommasi orasida keng kampaniya ochish"ni taklif qildi, chunki I. Vareykisning ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek: "Biz yuqori organlar fikriga, partianing fikriga egamiz, biroq bizda bo'lajak chegaralanish keng dehqonlar ommasi ongiga qanday singishi haqida aniq tasavvur yo'q... Barcha uzil-kesil qarorlar qabul qilib bo'lingach, biz butun aholini bu inqilobiy islohot bilan tanishtirish yuzasidan g'oyat keng kampaniya o'tkazishimiz lozim buladi" [6.]. Vareykisning bu mulohazasi muhim ahamiyatga ega. Haqiqatan ham, o'lka aholisi o'sha vaqtga qadar o'z taqdiri uchun g'oyat ahamiyatli bo'lgan masalani muhokama qilishdan butunlay chetlashtirib qo'yilgan edi.

Tashviqot kampaniyasi partiya organlarining va avvalo Rossiya KP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining qat'iy nazaratida amalga oshirildi. Hamma joyda viloyat partiya qo'mitalari huzurida viloyatlarning mas'ul xodimlaridan iborat tarkibda kampaniyalarni o'tkazish komissiyalari tuzildi; yo'l-yo'riq beradigan majlislar, partiya yig'ilishlari o'tkazildi, kampaniyani o'tkazish rejalarini tayyorlandi. Kampaniyani o'tkazishdagi qattiqqo'llik mintaqasi partiya rahbariyati orasida birmuncha ishonchsizlik, xavfsirash borligidan dalolat berardi. Haqiqatan xam, partiya yacheykalarida muhokama qilish bosqichida bu xavfsirash uchun zamin mavjudligini tasdiqlovchi jihatlar namoyon bo'ldi. 1924 yil 31 avgustda O'rta Osiyo respublikalarini chegaralash yuzasidan o'tkazilayotgan tashviqot kampaniyasi to'g'risidagi direktivalarni to'ldirish va anqlik kiritish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Markaziy Qo'mita O'rta Osiyo byurosining 1924 yil 7 sentabrda bo'lib o'tgan majlisida byuroning birinchi kotibi I.A. Zelenskiy "Chegaralanish bilan bog'liq masalalar to'g'risida" ma'ruza qiladi. Ma'ruzada O'rta Osipyoda o'tkazilayotgan milliy-hududiy chegaralanish bilan bog'liq tadbirlar xususida so'z boradi. Majlisda hududiy komissiyaning 16 avgustdagagi 2-protokoli, 21 avgustdagagi 5-protokoli va 6 sentabrdagi 6-protokoli asosida yangi tuzilayotgan Turkmaniston SSRning chegaralari tasdiqlanadi. Shuningdek, hududiy komissiyaning 21 avgustdagagi 5-protokoli asosida yangi tuzilayotgan O'zbekiston SSRning Qirg'iziston Respublikasi (aslida, Qozog'iston ASSR) bilan chegaralari ham tasdiqlanadi. Turli xalqlar aralash yashaydigan hududlarni milliy respublikalar yoki viloyatlarning qaysi biriga kiritish lozimligi keskin tortishuvlarga sabab bo'ladi. Bu haqda arxiv fondlarida ko'plab hujjatlar saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo byurosining 1924 yil 9 sentabrda bo'lgan 109-majlisida Buxorodagi qirg'izlar (aslida, qozoqlar) masalasi bo'yicha komissiyaning ma'ruzasini tinglanadi. Ma'ruzada ko'rsatilishicha, Buxoro viloyati hamda Karmana viloyatining g'arbiy qismi (Konimex) va Nurota viloyatlarida qirg'izlar (qozoqlar) yashayotganligi uchun



bu yerda maxsus qirg'izlar (aslida qozoqlar) tumani (markazi - Nurota shahri) tashkil qilinishi lozim. Bu tuman markaziy hokimiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadi. Bu haqda majlisda maxsus qaror qabul qilingan va ushbu qaror asosida keyinchalik maxsus Nurota uyezdi va Konimex avtonom rayoni tashkil etilgan. Buxoro hududlari asosida yangi O‘zbekistonni tashkil etish zarurati ko‘rsatib berilgan ushbu loyiha O‘rta Osiyo byurosi tomonidan 1924 yilda tasdiqlandi.

Xullas, milliy-hududiy chegaralanish to‘g‘risidagi masalani muhokama qilishni qat’iy tartibga solishga urinish o‘z samaralarini berdi. O‘rta Osiyo respublikalari partiya rahbariyati RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosi rahbarligida jiddiy larzalardan holi bo‘lishga, partiyali va partiyasiz ommaning milliy-hududiy chegaralanish hamda yangi respublikalar va avtonom viloyatlar tashkil etish bo‘yicha partiya rejalarini ma‘qullashi va qo‘llab-quvvatlashiga erishishga muvaffaq bo‘ldilar.

TURKISTONDAGI SIYOSIY JARAYONLARDA ATOQLI DAVLAT ARBOBI TUROR RISQULOVNING TUTGAN O‘RNI VA IJTIMOIY FAOLIYATI

Qandov Bahodir Mirzayevich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotation. Ushbu maqolada XX asr boshida faoliyat yuritgan atoqli davlat va jamoat arbobi Turar Risqulov ijtimoiy-siyosiy faoliyati yoritilgan. Bugungi kunda Respublikamizda siyosiy qatag‘on qurbanlari xotirasiga bag‘ishlab kitoblar nashr etilib, beg‘araz qatl etilganlar xotirasiga yodgorliklar o‘rnatildi. Qatag‘on qilingan arboblardan biri Turar Risqulovning fojiali taqdirini yana bir bor anglash, uning ijodiy merosini milliy tarixga kiritish kabi masalalar maqolada o‘rganilgan. Shuningdek maqolada Turkiston mahalliy aholi vakillarning o‘z siyosiy huquqlariga ega bo‘lishlari uchun kurashlari ishtirokchisi Turor Risqulovning siyosiy faoliyatining boshlanishi hamda Turkiston o‘lka muxtoriyati ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahvol, madaniy hayotdagi o‘zgarishlar kabi asosiy masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy faoliyat, Turor Risqulov, Turkiston, qatag‘on, siyosiy rahbar, xotira, Turkiston o‘lka muxtoriyati, Qirg‘iziston, Rossiya imperiyasi, madaniy siyosat, ijtimoiy-siyosiy hayot.

Аннотация. В данной статье описывается общественно-политическая деятельность Турада Рискулова, известного государственного и общественного деятеля, творившего в начале XX века. Сегодня в нашей республике изданы книги, посвященные памяти жертв политических репрессий, установлены памятники памяти тех, кто был казнен без разбора. В статье рассматриваются такие вопросы, как переосмысление трагической судьбы Турада Рискулова, одного из репрессированных деятелей, и включение его творческого наследия в отечественную историю. Также в статье освещается начало политической деятельности Турада Рискулова, участника борьбы за политические права представителей местного населения Туркестана, а также социально-политическая, экономическая ситуация и изменения в культурная жизнь автономной Туркестанской области.